



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/JMFE6018

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi

*13.00.02 – Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi 1-kurs tayanch
doktoranti*

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmalarini baholovchi topshiriqlar metodikasini takomillashtirish borasida qator usul va tavsiyalar o'rin olgan. Ta'kidlash lozimki, ona tili ta'limini o'qitishda o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan usullar ta'lim oluvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishi bilan birgalikda ulardagi dars jarayonida bo'lgan qiziqishlarining yanada yuksalishiga xizmat qiladi. Dars jarayonidagi o'qish savodxonligi ko'nikmalarini rivojlantirish bevosita o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga asoslanib, o'qituvchilarning o'quvchilar o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishiga :r sa'y-harakatlari dars sifatining davlat ta'lim standartlariga to'laonli javob bera olishiga imkon beruvchi omil hisoblanadi. Shuningdek, ona tili ta'limida o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmalarini baholovchi topshiriqlar metodikasi topshiriqlar xilma-xilligi, baholash jarayoniga o'ziga xos yondashuv, zamonaviy texnologik vositalar bilan ishlash kabi omillarni ham qamrab olishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: ona tili ta'limi, o'qish savodxonligi, ko'nikma, baholash, metodika, rivojlantirish.

Абстрактный. В статье представлен ряд методов и рекомендаций по совершенствованию методики заданий, проверяющих навыки грамотного чтения учащихся при обучении на родном языке. Следует отметить, что методы, направленные на развитие и совершенствование читательской грамотности учащихся при обучении родному языку, наряду с повышением научного потенциала учащихся, служат дальнейшему повышению их интереса к процессу урока. Развитие навыков читательской грамотности в классе осуществляется на основе непосредственного взаимодействия учителя и учащихся, а усилия учителя по развитию навыков чтения учащихся являются фактором, позволяющим качеству уроков в полной мере соответствовать государственным образовательным стандартам. Также важна методика заданий, оценивающих навыки грамотности чтения учащихся в рамках обучения на родном языке, поскольку она охватывает такие факторы, как разнообразие заданий, уникальный подход к процессу оценки и работа с современными технологическими инструментами.

Ключевые слова: образование на родном языке, грамотность чтения, навыки, оценка, методология, развитие.

Abstract. This article presents a number of methods and recommendations for improving the methodology of tasks assessing students' reading literacy skills in native language education. It should be noted that methods aimed at developing and improving students' reading literacy in native language education, along with increasing the scientific potential of students, serve to further increase their interest in the lesson process. The development of reading literacy skills in the lesson process is based on direct teacher-student interaction, and teachers' efforts to develop students' reading skills are a factor that allows the quality of the lesson to fully meet state educational standards. Also, the methodology of tasks that assess students' reading literacy skills in native language education is important



because it includes factors such as the variety of tasks, a unique approach to the assessment process, and working with modern technological tools.


Keywords: native language education, reading literacy, skills, assessment, methodology, development.

Bugungi kunda ta'lim tizimi jarayonida olib borilayotgan islohotlar ushbu sohaga yanada e'tibor berish, undagi mavjud sohalarning qonun-qoidalarini takomillashtirish hamda o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini mustahkamlash evaziga qurilmoqda. Ayniqsa, ona tili ta'limida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish hamda ularning ushbu jarayonda baholash ko'nikmalarini takomillashtirish borasida yangi metodik uslubiyatni ishlab chiqish ushbu sohada faoliyat olib borayotgan har bir mutaxassis kadr oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Bizning ushbu maqolamiz ham bevosita ona tili ta'limida o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmalarini baholovchi topshiriqlar metodikasini takomillashtirish xususida bo'lib, bu boradagi qator metodik tavsiya va usullar maqola tarkibidan o'rin olgan.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmalarini baholovchi topshiriqlar metodikasini takomillashtirish qator omillarga tayanadi, xususan:

1-diagramma.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'nikmalarini baholovchi topshiriqlar metodikasini takomillashtirishning o'ziga xos omillari



Ushbu fan :rasida o'qish ko'nikmalarini baholashda tanlangan topshiriqlar mazmunan va strukturaviy jihatdan o'ziga xos ahamiyatga ega. Dars jarayonida turli xil matnlarni qo'llay olish baholashning adolatli va har bir o'quvchining individual ko'nikmalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishiga imkon beradi. Chunonchi, dars mazmuniga mos badiiy, ilmiy-ommabop, publisistik matnlar, diagrammalar, infografik manbalar bilan ishlash ham o'qish ko'nikmalarini baholash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning kundalik hayotida duch keladigan matnlar bilan ishlash (turli ko'rsatmalar, yangilik, xabarlar va hokazo) ham baholash jarayonining odilona bo'lishiga yordam beradi. Xususan, quyidagi matn o'qish ko'nikmalarini baholashda o'ziga xos manba o'laroq xizmat qiladi:

"Shaxmat o'yini bundan 1500 yil avval Hindistonda paydo bo'lgan. Uni dastlab "Chaturanga" deb atashgan. Chunki bu o'yinda 4 kishi ishtirok etgan



(“chatur” - to‘rt degani). Keyinchalik o‘yinda 2 kishi qatnashadigan bo‘ldi. Nomi ham o‘zgartirilib, “Shatranj” deb yuritila boshlandi (“shatr” - ikki degani).

Shaxmat nomi esa Eronda vujudga kelgan. “Shoh mot” - shoh o‘ldi, degan ma‘noni anglatadi. Shaxmat o‘yini Yevropaga VIII-IX asrlarda yetib keldi. 1986-yilda shaxmat o‘yini bo‘yicha jahon birinchiligining 100 yilligi nishonlandi¹⁴¹.

Ona tili fanini o‘qitishda yuqorida keltirilgan matn bilan ishlash orqali o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini baholashda bir necha jihatlarni yoritish mumkin, jumladan¹⁴²:

- ✚ *matndan o‘rin olgan axborotni ajrata olish ko‘nikmasi;*
- ✚ *matndan individual xulosa ola bilish ko‘nikmasi;*
- ✚ *so‘z boyligini tekshirish;*
- ✚ *matn strukturasini tushunish;*
- ✚ *tanqidiy fikrlay olish ko‘nikmasini shakllantirish*

Ushbu matn bilan ishlash jarayoni o‘quvchilarning matnni anglash va tushunish, axborotni qayta ishlash, o‘z fikrini bayon eta olish kabi qobiliyatlarining rivojlanishiga, shuningdek, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini baholashlariga imkon beradi. Shuningdek, o‘qish ko‘nikmalarini baholash jarayonida kognitiv darajalarni (bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qila olish, sintezlash) ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, o‘quvchi o‘qish jarayonida yuqoridagi kognitiv sifatlardan birortasi borasida muammo duch kelsa, bu uning o‘qish ko‘nikmalarini egallashiga ham o‘zining salbiy ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi.

Ona tili ta‘limini olib borishda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini baholash jarayoni ham o‘qituvchilar uchun muhim va mas‘uliyatli jihat sanaladi. Baholash mezonlarining adolatli va odilona yo‘lga qo‘yilishi bevosita aniq va o‘lchovli mezonlarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga asoslanadi. Shuni ham qayd etish lozimki, ushbu jarayon subyektiv ishtirokka ko‘ra ikki xil bo‘lishi mumkin:

- O‘qituvchining  o‘quvchiga bahosi
- O‘quvchining  o‘quvchiga bahosi

Birinchi baho turi individuallikka asoslansa, ikkinchi baholashda jamoaviy yondashuv muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, o‘quvchilar tomonidan baholash jarayonida jamoaviy diqqat-e‘tiborning yanada taraqqiy etishiga, diqqat jam bo‘lishiga imkon beradi. Bundan tashqari, baholash jarayonida turli metodik vositalar, rubrikalardan foydalanish ham baholash jarayonining shaffof va obyektivligini ta‘minlovchi omil o‘laroq xizmat qiladi¹⁴³.

Qo‘shimcha sifatida aytish mumkinki, ona tili darslarini o‘qitishda o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini baholashda zamonaviy texnologiyalarga murojaat qilish ham samarali usul sanaladi. Ushbu usulni qo‘llash uchun quyidagilarga amalga qilish maqsadga muvofiq:

¹⁴¹ Bo‘ranova Sh. va boshq. Diktantlar to‘plami 5-9-sinflar uchun. – Nukus, 2018. – B. 14.


¹⁴² Muhiddinov A.G. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. Toshkent, O‘qituvchi, 1995. – B. 11.

¹⁴³ G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, Universitet, 2001. – 221 b.




2-diagramma.

Ona tili darslarida o'qish ko'nikmalarini baholashda zamonaviy texnologiyalarga murojaat qilishning o'ziga xos shakllari



Ona tili ta'limini olib borishda savodxonligi ko'nikmalarini baholashda zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish dars jarayonida interaktiv topshiriqlarni yaratish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Bu kabi topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning o'qish savodxonligini yanada takomillashtirishga imkon beradi. Xususan, o'qish savodxonligini oshirishga qaratilgan, asosan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Sirli xabar" metodi bevosita baholash metodikasini takomillashtirish bilan birga o'quvchilarning kognitiv tushunchalarini ham boyitishga imkon beradi:

"Sirli xabar" metodi



1-jadval.

"Sirli xabar" metodining bajarilish tartibi

<i>Jarayon</i>	<i>Izoh</i>
/r Guruhlarga bo'linish	<i>Sinf o'quvchilari 4-5 kishilik guruhlarga bo'linadi.</i>
Jumboqli matnni tarqatish	<i>Har bir guruhga konvert ichida jumboqli matn qismlari beriladi. Matn qismlari tartibsiz joylashtirilgan bo'ladi.</i>
Matnni yig'ish bosqichi	<i>Guruhlar matn qismlarini to'g'ri tartibda joylashtirib, butun matnni yig'ishlari kerak.</i>
Matnni tushunish jarayoni	<i>Matn yig'ilgandan so'ng, guruh a'zolari matnni o'qib,</i>



Sirli xabarni ochish

mazmunini tushunishlari kerak.

Matnda yashirin bir xabar bo'ladi. O'quvchilar matnni tahlil qilib, sirli xabarni topishlari kerak. Sirli xabar jumboq, topishmoq yoki kodlangan so'z bo'lishi mumkin.

Namunaviy matn:

- + Qizcha savatni qo'lga olib, buvisining oldiga yo'l oldi.
- + U yo'lda bo'rini uchratib qoldi.
- + Bo'ri buvisining uyiga yetib borib, uni yeb qo'ydi.
- + Buvisi kasal bo'lib qolgan edi.
- + Keyin qizchani ham yutib yubordi.

Ertakdan parcha sifatida olingan yuqoridagi matndagi sirli xabar quyidagicha bo'lishi mumkin: "Ehtiyot bo'ling, notanish odamlar bilan muloqot qilmang!"

Ushbu matn o'quvchilar tomonidan o'qib bajarilgach, uni baholash tartibi quyidagilarga asoslangan bo'lishi lozim:

- O'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasining mavjudligi;
- Matn qismlarini to'g'ri tartiblay olish ko'nikmasining shakllanganligi;
- Matn mazmunida yashiringan xabarni anglash;
- Guruhlararo jamoaviy ishlash olish ko'nikmasini rivojlantira olish.

Shuningdek, ona tili ta'limini olib borishda o'quvchilar o'qish savodxonligini baholash metodikasini amalga oshirish uchun onlayn platforma va dasturlarga ham murojaat qilish dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, baholash jarayonidagi adaptiv baholash tizimini qo'llay bilish ham o'z samaradorligini ko'rsatmay qolmaydi. Adaptiv baholash tizimi o'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi, guruhdagi ayrim o'quvchilarda ona tili ta'limidagi o'qish savodxonligini takomillashtiruvchi mashq va topshiriqlarda individual bajarishda faollik ko'rsatsalar, boshqa o'quvchilarga xos faollik ularning jamoaviy ishlashlarida aynan namoyon bo'ladi. O'qituvchi tomonidan baholash jarayonida ushbu holatga alohida e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa o'qituvchilar bu borada malaka oshirish jarayonlarida ishtirok etishlari hamda o'zaro fikr almashish jarayonlarining olib borilishi dars sifatining yanada oshishiga xizmat qiluvchi omil o'laroq xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ona tili ta'limida o'qish savodxonligi ko'nikmalarini baholovchi topshiriqlar metodikasini takomillashtirish orqali dars jarayonining yanada sifatli va ko'tarinki ruhda o'tishi ta'minlanadi. Shuningdek, o'quvchilarning o'qish savodxonliklari borasidagi ko'nikmalari yanada rivojlanadi. Buning uchun esa o'qituvchilar o'z ustida yanada ko'proq ishlashi hamda zamonaviy texnologik vositalarni dars jarayoniga tatbiq qilishlari hamda ulardan maqsadli foydalanishi zarur.



Adabiyot:

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (5-9-sinflar). Toshkent, 2010. 10-41-b.
2. Uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiyava taqvim-mavzu rejalar (5-9-sinflar). (Tuzuvchilar: M. Abduraimova, G. Ziyodullayeva), Toshkent, "Sharq", 2010.
3. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent, «Fan», 1988.
4. Ibrohimov S. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz. Toshkent, «Fan», 1972.
5. Madayev O. Insho qanday yoziladi. Toshkent, «O'qituvchi», 1991.
6. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Aminov M. O'zbek tilida ish yuritish (munshaot). Toshkent, 1990.
7. Muhiddinov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. Toshkent, «O'qituvchi», 1995.
- Ne'matov H., G'ulomov A., Abduraimova M, Ijodiy matn ustida ishlash. Toshkent, RTMD, 1997.
8. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturi UO'T DTS va o'quv dasturi. «Ta'lim taraqqiyoti» axborotnomasining 1-maxsus soni. «Sharq» nashriyot matbaa konserni, 1999, 55-140-b.
9. Sayfullayev A., Sayfullayeva R. Ona tili darslarida nutq o'stirish(8-sinf materiallari asosida). Toshkent, 2002, 51 b.
10. Turdiyev B. Yozma nutqni o'stirishdan praktikum. Toshkent, «O'qituvchi», 1980.
11. To'xtamirzayev M. Nutq o'stirishda muloqotning roli. «Tilva adabiyot ta'limi», 1991, 9-son.
- Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari, Toshkent, «O'qituvchi», 1993.
12. G'ulomov A., Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). Toshkent, «O'qituvchi», 1995.
13. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, «Universitet», 2001, 221 b.
14. G'ulomov A., Qosimova N. Ijodiy ishlar nazariyasi. Buxoro, 2011.
15. Qo'chqorov A. «So'z tarkibi» grammatik kompozitsiyasi. «Til va adabiyot ta'limi», 1992, 1-son, 28-31-b.
16. Nurmatova M. Ifodali o'qish to'garagi. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 1992, 1-son, 28-31-b.
17. Jalilova M, Ne'matova G. Takrorlash mashg'ulotlarini «Topqirlar bellashuvi» tarzida o'tkazish. «Til va adabiyot ta'limi»jurnali, 1994, 2-3- qo'shma son, 36-37-b.
18. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, «Universitet», 2001, 221 b.



<i>Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i>	701
<i>Odiljonova Nilufar Abduvohob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i>	706
<i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIY TAJRIBASI</i>	712
<i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i>	716
<i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	721
<i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSLARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i>	727
<i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i>	731
<i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i>	735
<i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSLARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>	742
<i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i>	747
<i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i>	752
<i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	756
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i>	762
<i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i>	767
<i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i>	774
<i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i>	780
<i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	785
<i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i>	790

